



## BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA BUYUK ALLOMALARNING IJODI ORQALI MILLIY ODOB KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Tursunova Muslimaxon<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Qo'qon Davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti 308-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5815043>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-dekabr 2021

Ma'qullandi: 25-dekabr 2021

Chop etildi: 30-dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Prezidentimizning 1875-qarorlari, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy va Yusuf Xos Hojib.

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqola yozish davomida boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida buyuk allomalimizning ijodi orqali odob-axloq, ta'lim-tarbiya haqidagi ko'rsatmalari dars davomida qanday usullar bilan o'tib o'quvchilarni darsga jalb etish haqida yozgan asarlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida ko'zdan kechirdim va Muhtaram Prezidentimizning ta'lim to'g'risidagi qarorlari bilan ham tanishdim.*

Kirish. Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umum insoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi bo'lib hisoblanadi. Bilim olish, albatta, yoshlikdan boshlanadi. „Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir“, - deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sahifalaridan, xalqimizning qalbidan o'chmaydi. Shunday kishilar qatorida Sharq musulmon dunyosi mutafakkirlaridan al-Kindiy, G'azzoliy, Beruniy, Xorazmiy, Naqshbandiy, Yassaviylarni, G'arb allomalari I. Kant, F. Hegel, L. Feyerbax, A. Shopengauerlar-ning nomlarini tilga olmasdan bo'lmaydi. Eng buyuk allomalari donishmandlar,

o'zlarining noyob asarlari, ta'limotlari bilan insoniyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar.

Ular ilmlarini ilmu fanga bag'ishlab, bu yorug' olamdan ketar chog'i „hayot ilmini chuqur?“, degan savolga, „hech narsa bilmay ketyapman“, - degan ekanlar. Ne ajab, hayot ilmi sirli va murakkabki, anglab yetmoqqa butun insoniyat umri ham yetmaydi.<sup>1</sup>

O'zbekiston ta'lim tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad -maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni



tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.<sup>2</sup>

Yurtimizda kundan kunga juda katta o'zgarishlariz sodir bo'lmoqda ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ 1875- sonli „Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroridan keyin Ingliz tili faniga juda katta e'tibor qaratila boshladi. Masalan maktablarda ingliz tili fani boshlang'ich sinflardan ya'ni 1- sinflardan o'rgatila boshladi. Bundan tashqari ingliz tili xonalari uchun alohida e'tibor berilib xona o'quvchilar uchun qulay va zamonaviy tarzda jihozlanmoqda. Muhtaram Prezidentimiz ingliz tili o'rganuvchilari va o'qituvchilari uchun juda katta sharoitlar yaratyapti. Ayqinsa boshlang'ich sinf darsliklarida o'qituvchilar dars o'tish metodlarini buyuk allomalarimiz ijodi orqali bilim bermoqdalar. Chunki dars o'tish metodida buyuk allomalarimizning ya'ni Komenskiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va boshqalarning ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi qarashlari, ko'nikmalari dars o'tish uchun yaxshi qo'llanmalardir. Masalan, Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. Chunki:

Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsar,

O'lim kelib bermagunicha, o'z tarzini o'zgartirmaydi.

Shoir o'g'il va qizining tarbiyasi haqida fikr yuritir ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni takidlaydi.

Farzand tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan, ezgu niyyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak. Yusuf Xos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bilib holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bu necha san'at turlarini va hunarlarini tugal o'rganmog'i lozimligini, bu - ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zaruriyligini ta'kidlaydi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup>Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008 144-bet;

<sup>2</sup>Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008 269-bet;

<sup>3</sup>Pedagogika tarixi kitobi Toshkent-2004 52-bet

Tajriba jarayoni, Farobiyning fikricha, tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim, chunki „har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Buning uchun unga o'qituvchi kerak“.

Forobiyning ta'kidlashicha, ta'lim tarbiya berish ikki usulda bo'ladi. Birinchi usul amaliy fazilatlar hamda amaliy san'atlar, kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish yo'lidir bu odat

ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: birinchi yo'l — qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasbga intilish, harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi usul — majbur etish yo'lidir. Bu usul gapga ko'nmovchilarga nisbatan



qo'llaniladi.<sup>4</sup> Ayniqsa bu usullar ingliz tili o'qituvchilari uchun ham juda samaralidir. O'qituvchi dars o'tish jarayonida bunday usuldan foydalansa ya'ni darsiga chorlovchi, ilhomlantiruvchi yo'llar bilan o'tsa o'quvchilar ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'sha fanga bo'lgan ishqibozi kuchayadi. Ayniqsa hozirgi kunda maktablarda 1-sinfdan ingliz tilini fani o'qitila boshlangani o'quvchilarni shu fanga qiziqishi yanada ortyapti va 1-sinf yoki 2-sinfdan kelajakda qaysi kasb egasi bo'lasiz deb savol berilganda o'quvchilar ingliz tili o'qituvchi deb javob beradilar. Bu ham katta yutuq, ingliz tili o'qituvchilari uchun va yurtimizning rivojlanishi ravnaq topishi uchun katta muvofiq desa ham bo'ladi.

Beruniy fikricha, inson yaratadigan har bir narsa uning ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishi kerak. „Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirmaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli tuman bog'-rog'larda sayr

qilgandek bo'ladi, bir birdan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. „Har bir narsa rohat bag'ishlaydi” deb behuda aytilmagan”, - deydi Abu Rayhon Beruniy.

<sup>4</sup>Pedagogika tarixi kitobi 42-bet;

<sup>5</sup>Pedagogika tarixi kitobi 44-bet;

<sup>1</sup>Pedagogika nazariyasi X. Ibragimov, Sh. Abdullayev T., „Fan va texnologiya”, Toshkent-2008 144-bet.

<sup>2</sup>Pedagogika nazariyasi X. Ibragimov, Sh. Abdullayev T., „Fan va texnologiya”, Toshkent -2008 269-bet.

<sup>3</sup>.Pedagogika tarixi kitobi Asqar Zunnunov „Sharq” nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2004 52-bet

<sup>4</sup> O'sha kitob 42-bet

<sup>5</sup> O'sha kitob 44-bet

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. X. Ibragimov, Sh. Abdullayev Pedagogika nazariyasi T., „Fan va texnologiya”, Toshkent-2008
2. Asqar Zunnunov Pedagogika tarixi „Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2004
3. O. Hasanboyev, J. Hasanboyev, H. Hamidov Pedagogika tarixi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2004